E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023 SPECIAL ISSUE

BILIMLARNI NAZORAT QILISH VA BAHOLASHNING INAVATSION METODLARI

Artiqova Oxistaxon Mirodilovna

Andijon viloyati Izboskan tumani

2-son KHM informatika o`qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada uzluksiz ta'lim tizimida amalga oshirayotgan islohotlar faoliyatlarida bilim oluvchilarni o'qitishning zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari asosida bilim, ko'nikma, malaka xamda shaxsiy fazilatlarini shakllantirish va hayotga tayyorlash, ta'lim-tarbiya berish jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish bugungi kunning muhim vazifaliridan biri hisoblanadi.

Kalit so'zlar

Interaktiv metod, innovatsion texnologiya, halqaro standart tasniflagichi, professional ta'lim, pedagogika, interaktiv metod, texnologiya, subyekt, obyekt.

KIRISH

Nazorat tahlili-tarbiya jarayonining asosiy tarkibiy qism bo'lib, dasturiy materialni o'rganish ma'no va mohiyatini tushunish, mustahkamlash, qo'llash, ya'ni xatti-harakat usullarni shakllantirishga bevosita bog'liq. Nazoratning rejali ravishda amalga oshirilishi o'qituvchi va ishlab chiqarish ta'limi ustalariga ma'lum bir paytda o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan bilimlarni tizimlashtirish, muvaffaqiyatga erishishi va yo'l qo'yilgan kamchiliklarni o'z vaqtida bartaraf qilishga imkon beradi. Nazorat vaqtida o'quvchi o'qituvchining savollariga javob berish bilan birga boshqa vazifalarni ham bajaradi. Kichik guruhlar o'quvchilari bergan javoblarni tahlil etadi, ularga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritadi, o'zlashtiraolmaganlarni o'rganadi, qo'shimcha ishlar bajaradi, ish davomida javobgarlik hissi oshadi, o'z ustida muntazam ishlaydi, jamoa bilan ishlashni o'rganadi, ijobiy, shaxsiy fazilatlari takomillashadi. O'quvchilar o'zlashtirgan bilimlarini baholash aqliy layoqatga bog'liq. Bilimlar me'yor va mezonga qarab baholanadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Nazoratning rejali ravishda amalga oshirilishi ta'lim beruvchiga ma'lum bir paytda o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan bilimlarni tizimlashtirish, muvoffaqiyatga erishish va yo'l qo'yilgan kamchiliklarni o'z vaqtida bartaraf etishga imkoniyat beradi. Ta'lim beruvchilar tomonidan o'tkazilgan harqanday mashg'ulotlar va ta'lim oluvchilarning o'z-o'zini nazorat qilishning bir vaqtda olib borilishi har bir ta'lim oluvchiga o'zi erishgan yutuqni ko'rib moxiyatni anglashga, yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf etishga xamda ko'nikma, malakaning shakllanishi va shaxsiy fazilatlarning hosil bo'lishiga yordam beradi.

Nazorat metodlari – bu ma'lum usullar yordamida bilim oluvchilarning o'quv – bilish faoliyati va ta'lim beruvchining pedagogik faoliyati natijalarini aniqlash yo'llari majmuasidir. Asosiy nazorat

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023 SPECIAL ISSUE

metodlari asosida ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarning kuzatish asosida o‘z burchiga munosabati, uning kuchli va kuchsiz jixatlarini, bilimlaridagi kamchiliklarni aniqlashga, ularga invidual yondashishga bilim, ko‘nikma va malakalarni tekshirishga imkon beradi, shaxsiy fazilatlarining qanday shakllanayotganini bilib boradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Amaliyotda kuzatish bilan birga og‘zaki, amaliy nazorat, sinov hamda imtihon ko‘rinishlari mavjud (Sxema № 1).



O‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi o‘quvchilarining bilim saviyasi, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 16 oktabrdagi 400-son qarori bilan tasdiqlangan “O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi Davlat ta’lim standartlari”ning tarkibiy qismi bo‘lib hisoblanadi.

Amaldagi “Ta’lim to‘g‘risda”gi qonun hamda ulardan so‘ng qabul qilingan qator qarorlar va farmonlarda ta’lim muassasalarining asosiy vazifasi yosh avlodga har tomonlama mukammal bilim berish, ularni amalda qo‘llash malakalarini tarkib toptirish shakllantirish, dialektik dunyoqarashini shakllantirish, deb ko‘rsatilgan.
Bu vazifalar yechimini topishning asosiy yo‘llaridan biri ta’lim oluvchilar bilim, ko‘nikma va malakalarini baholashda ob’ektivlikni oshirish; baholarni aniq ilmiy asosda qo‘yish hisoblanadi.
Ana shunday mezonlar sirasiga kuyidagilarni kiritish mumkin.

1. Nazariy ta’lim bo‘yicha bilimlar mukammalligi – o‘rganilgan ob’ektning muxim jixatlarini yorita olishdagi miqdoriy ko‘rsatkichi;

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023 SPECIAL ISSUE


2. Tizimlilik – bilimlar elementlari orasidagi aloqadorliklarning anglanganligi;
3. Umumlashganlik – bilimlar elementlari orasidagi umumiylikning anglanganligi;
4. Xaqiqiyligi – bilimlardan aniq shart-sharoitlardan foydalana olish qobiliyati;
5. Mustaxkamligi – o‘zlashtirilgan bilimning xotirada saqlanishi;

Ishlab chiqarish ta’limi bo‘yicha:

- xatti - xarakat usullarining o‘zlashtirilganligi;
- o‘quv-ishlab chiqarish vazifalari, ishlarini bajarishda texnik, mexnat va xayot xavfsizligi talablariga amal qilinishi.
- texnik-texnologik talablarga amal qilinish
- vazifani, ishni belgilangan me’yoriy vaqt birligida bajarilishi va shu kabilar.

Zikr etilgan mezonlar va ko‘rsatkichlarni baholar bilan aniqlashtiruvchi nisbatlar aniq o‘quv predmetlari bo‘yicha dasturlar ishlab chiqqan mualliflar va metodik komissiyasi tomonidan belgilanishi zarur. Bu me’yorlar asosida ta’lim natijalarini joriy, oraliq va yakuniy baholash mumkin bo‘ladi.

Masalan: Biror buyum, maxsulot tayyorlash imkoni mavjud bo‘lmasa, ishlab chiqarish ta’limi bo‘yicha ko‘nikma va malakalar xatti-harakat usullari ta’lim oluvchilar tomonidan taxlil qilinishi, ish o‘rnini tashkil etish; texnologik jarayon moxiyatini tushunish va asoslash, laboratoriya amaliy ishlarni bajarishga ko‘ra baholanishi mumkin.
Ta’lim beruvchilar ta’lim oluvchilarni baholashda quyidagilarga e’tiborini qaratishlari shart(sxema № 2.):
Sxema №2



XULOSA VA MUNOZARA

O‘qituvchi va ishlab chiqarish ta’limi ustalari ta’lim texnologiyalarini qo‘llashda nazorat va baholashga e’tiborini to‘liq qaratsa qo‘llab o‘tgan har qanday o‘quvchida yangilikga intilish, yuqori sifat, samaradorlik, ijodkorlik, yaratuvchanlik, mustaqillik, ongli munosabat va faollik, qilingan mehnatga nisbatan mehr-muxabbat uyg‘otadi, bundan tashqari fikr, g‘oyalar, yangiliklar vujudga

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023 SPECIAL ISSUE

keladi. Innovatsion texnologiyaning maqsadi ham shundan iboratdir.

O‘qitish, ta’lim-tarbiya berish samaradorligini oshirish, uni tashkil etish shaklgagina emas, balki uni tashkil etuvchi komponentlar va omillarga bog‘liq.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Abduqudusov O.A. Rashidov H.F “Kasb - hunar pedagogikasi” Uslubiy qo‘llanma T 2011 yil 13-iyun.
2. Nishonov A, Xaydarov B va boshqalar “Baxolash metodlari” T 2003-yil.
3. Ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari. Toshkent 2002 yil.
4. Farberman B.L “Ilg‘or pedagogik texnologiyalar” Toshkent-2000 yil
5. N. Sayidahmedov “Yangi pedagogik texnologiya” Toshkent. 2003 yil.
6. Ishmuxamedov R.J “Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari”. (Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o‘qituvchilari uchun uslubiy tavsiyanoma) Toshkent 2003 yil.

WORDLY
KNOWLEDGE